

AJDODLAR MEROSINI O'RGANISH VA UNI KEYINGI AVLODGA TAQDIM ETISH BURCHIMIZDIR.

Ibrohimova Gulchiroy

Oriental Universiteti Lingvistika

(arab tili) mutaxassisligi 2-kurs talabasi

Har bir xalqning tarixi, madaniyati va an'analari ajdodlaridan meros sifatida qoladi. Bu meros bizning kimligimizni, qanday yo'lni bosib o'tganimizni va kelajakda qanday rivojlanish yo'lini tanlashimizni belgilaydi. Ajdodlar merosini o'rganish va uni keyingi avlodlarga taqdim etish bizning mas'uliyatimiz va burchimizdir. Bu vazifa orqali biz o'zimizni anglaymiz, madaniy va tarixiy boyliklarimizni saqlab qolamiz hamda ulardan kelajak avlodlar foyda ko'rishlari uchun zamin yaratamiz. 2017 - yil 24 maydagi PQ-2995-son " Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilis tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida"gi Qarorga muvofiq bugungi kunda Qadimiy manbaalarni o'rganish bo'yicha sezilarli darajada yaxshi chora tadbirlar olib borilmoqda. Hozirgi kunda mana shunday olib borilayotgan tadqiqot manbaalaridan biri Sayyid Sharif Jurjoniyning "Nahvi Mir" asaridir. Bugungi kunda bashariyatning taraqqiyot darajasini belgilayotgan eng muhim fanlar (kibernetika, astronomiya, medisina sh.k.)ning asoslari o'rta asrlarda arab tilida yaratilgan edi. "Islom madaniyati" yoki "Arab tilidagi madaniyat" deb atalmish bu madaniyatning shakllanib, rivojlanishida Movarounnahrlik ko'plab tilshunos olimlarning xizmatlari beqiyosdir. Ana shunday ajdodlarimizdan biri Amir Temur davrida Samarqandda yashab, arab tilshunosligining rivojiga salmoqli hissa qo'shgan va butun dunyoga dong'i ketgan allomalardan biri Sayyid Sharif Jurjoniydir. U Jurjonning Astrobod viloyatiga qarashli Toku shahrida hijriy 740 sanada (milodiy 1340) tavallud topgan . Hijriy 789, milodiy 1378 sanada Sherozni zabt etgan Amir Temur Ko'ragoniy Sayyid Sharif Jurjoniyni o'zi bilan Samarqandga olib ketdi. Amir Temur Sayyid Sharif Jurjoniyni mudarrislarining boshlig'i mansabiga qo'ydi. Samarqanda o'tgan o'n sakkiz yillik davr u zotning buyuk hayotlarining eng samarali yillari bo'ldi, desak mubolag'a qilmagan bo'lamiz. U kishi o'zining ko'plab asarlarini aynan Samarqandda

yozdi. Sayyid Sharif Jurjoniy arab tili, faroiz, kalom ilmi kabi ko‘plab ilmlarni rivojlanishiga ulkan hissa qo‘shgan buyuk olimlardan biri bo‘lgan. Olim o‘zidan katta ilmiy meros qoldirgan. U kishi tafsir, hadis, fiqh, tasavvuf, kalom, arab tili, falsafa, mantiq, falakiyot, matematika, mazhablar tarixi va boshqa ilmlarga oid asarlar yozgan, avval yozilgan kitoblarga sharhlar va xoshiyalar bitgan. Shuning uchun ham Sayyid Sharif Jurjoniy nomini olgan. Asarlari ichida eng mashhuri “Nahvi Mir”dir. Sayyid Sharif Jurjoniyning “Mudarrislar amiri” degan faxriy unvoni bo‘lgani bois, asar shunday deb atalgan. U arab tili grammatikasiga oid fors tilida bitilgan asar. Madrasalarda nahv ilmidan boshlang‘ich o‘quv qo‘llanmalarining biri bo‘lib xizmat qilgan. “Nahvi Mir” asari arab, urdu tillariga bir necha marotaba tarjima qilingan. Asar toshbosmalarda bir necha marta nashr qilingan, qo‘lyozmalari qayta-qayta ko‘chirilgan. Bugungi kunda ushbu asarni O‘zbek tiliga ham tarjima qilish uni Kitob shaklida taqdim qilish uchun harakatlar amalga oshirilmoqda. “Nahvi Mir” hozirgacha Pokiston, Hindistondagi madrasalarda asosiy qo‘llanmalardan biri hisoblanadi. Manashunday nodir asarlarimizni yosh avlodga taqdim etish uchun maktab va universitetlarda ajdodlar merosi bo'yicha maxsus fanlarni kiritish manfaatli xisoblanadi. Bu orqali yosh avlod tarix va madaniyatimiz haqida bilim oladi. Ajdodlarimizning hayoti, ishlari va ularning yashash tarzi haqida bilim olish bizning tarixiy xabardorligimizni oshiradi. Bu esa milliy g'ururni mustahkamlaydi va xalqimizning rivojlanish yo'lida qanday qiyinchiliklarni yengib o'tganini eslatadi. Ajdodlar merosini o'rganish va uni keyingi avlodlarga taqdim etish nafaqat o'tmishni anglashga, balki kelajakni yanada boy va ma'noli qilishga ham xizmat qiladi. Bu jarayon har bir insonning o'z hissasini qo'shishi mumkin bo'lgan qimmatli vazifadir. Ajdodlarimizning boy madaniyati, qadriyatlari va tarixiy yutuqlari biz uchun ma'naviy boylikdir va uni saqlab qolish va kelajak avlodlarga yetkazish bizning burchimizdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Izoh.uz

Wikipedia

Karimov I.A. Yuksak Manaviyat - yengilmas kuch.- T.:Manaviyat,2009.

Шайх Мухаммад Содик Мухаммад Юсуф. Самарқанднинг сара уламолари. – Т.: Hilol – Nashr, 2014. –Б. 55.